

Yo'lovchi va kutib oluvchilar diqqatiga

2022 11 September

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati 2022-yilning 11-sentabr kuni HY-065 Toshkent – Termiz yo'nalishi bo'yicha aviaqatnovi Termiz shahridagi ob-havo sharoiti (kuchli qum shamoli) tufayli o'z yo'nalishini o'zgartirdi va havo kemasi Buxoro xalqaro aeroportiga qo'ndi. Hozirda 124 nafar yo'lovchilar Buxoro xalqaro aeroportida bo'lib turibdilar. Termiz shahrida ob-havo o'zgarishi bilan HY-065 aviaqatnovi belgilangan yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi.

Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.